

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**


TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Rektorning ____-sonli
buyrug'i bilan
TASDIQLANGAN
(2014-yil 21-iyun)

O'quv-uslubiy boshqarma
tomonidan ro'yhatga
olinib
№ **340054**
2014-yil 20-iyun

“KELISHILDI”
O'zMU O'QUV ISHLARI
BO'YICHA PROREKTORI

Sh.Sirojiddinov
2014-yil “__” “____”



**“NUTQ MADANIYATI”
ISHCHI O'QUV DASTURI**

**Oliy ta'limning
magistratura mutahassisliklari uchun**

Toshkent - 2014


Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2002-yil 28-fevralda tasdiqlangan "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasidagi barcha magistratura yonalishlari Davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: filologiya fanlari doktori, professor N. Husanov

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent O'.Lafasov
filologiya fanlari nomzodi A.Saparov

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 2014-yil dagi 20-maydagi 20-sonli majlisida muhokama etilib, fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri



N.Husanov

Fanning ishchi o'quv dasturi Moliyaviy menejment fakulteti Kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsiya qilingan (2014-yil 5-iyundagi 10-sonli bayonnama)

Fakultet dekani



O.Astanakulov

Kelishildi:

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



A.Karimov

1. Kirish

«Nutq madaniyati» o'quv fanining vazifasi talabalarning tom ma'nodagi adabiy nutq malakalarini hosil qilishlariga ko'maklashishdan iborat. Iqtisodiy bilimga ega bo'lgan mutaxassis yoki shu soha bo'yicha o'qituvchi qo'l ostidagi kishilar va talabalar qalbiga yo'l topa olishi, ularni ijodiy va samarali mehnatga rag'batlantira olish kerak. Ana shu muhim yutuqni qo'lga kiritish jarayonida esa rahbar xodimlarning nutq madaniyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan.

Bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqdi. Respublikamizning «Davlat tili haqida»gi qonuni, «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va boshqa hujjatlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, til masalalariga alohida e'tibor berilgan. Har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining chinakam sohibi bo'lmog'i lozim. Prezidentimiz I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1997-yil 29-avgustdagi IX sessiyasida so'zlagan nutqida «o'z fikrini mutlaqo mustaqil ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda etolmaydigan mutaxassisni avvalambor rahbar kursida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin» deb ta'kidladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Toshkent moliya instituti «Kasbiy ta'lim» mutaxassisligida ta'lim oluvchi talabalarga «Nutq madaniyati» fanidan 60 soat (18 soat ma'ruza, 18 soat amaliy mashg'ulot, 24 soat mustaqil ta'lim) hajmida dars berish rejalashtirilgan.

Dastur talabalarda til vositalaridan to'g'ri foydalanish malakasini shakllantirish, nutqning kommunikativ xususiyatlari (aniqligi, to'g'riligi, tozaligi, maqsadga muvofiqligi), til va nutq, notiqlik san'ati tarixi va nutq madaniyati, adabiy til me'yorlari, shuningdek, G'arb va Sharq notiqligi to'g'risida chuqur fundamental bilim berish maqsadida tuzilgan.

Dasturda:

- Iqtisodchi-pedagog nutqi va uning tasviriy texnikasi;
- Iqtisodchi-pedagog nutqi va uslubshunoslik;
- Iqtisodchi-pedagog nutqi va atamashunoslik kabi "O'qituvchi nutqi madaniyati" fanining fundamental bo'limlaridan iqtisodchi-pedagog kadrlar uchun yetarli darajada tizimlashtirilgan til bilimlarini berish nazarda tutilgan.

2. Asosiy qism

№	Mavzular nomi	Jami soat	Shu jumladan:		
			ma'ruza	amaliy mashg'ulot	mustaqil ta'lim
1	2	3	4	5	6
1.	“Nutq madaniyati” fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari	6	2	2	2
2.	Adabiy norma va nutq madaniyati	6	2	2	2
3.	Nutq madaniyati va notiqlik san'ati tarixi	6	2	2	2
4.	Til va nutq. Nutq odobi	8	2	2	4
5.	Nutqning kommunikativ sifatleri	10	2	4	4
6.	Iqtisodchi-pedagog nutqi va uning tasviriy texnikasi	8	4	2	2
7.	Iqtisodchi-pedagog nutqi va uslubshunoslik	8	2	2	4
8.	Iqtisodchi-pedagog nutqi va atamashunoslik	8	2	2	4
	Jami:	60	18	18	24

3. Ma`ruza darslari mavzulari

1-mavzu: “O’qituvchi nutqi madaniyati” fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari (2 soat).

«Nutq madaniyati» fani tilshunoslik va iqtisodiyot ilmlari bilan bog’liq muhim fan sifatida. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. « O’qituvchi nutqi madaniyati » fanining manbalari.

Iqtisodiyotning rivojida tilning vazifalari: iqtisodiy bilimlarni avlodlardan avlodga yetkazish, iqtisodchilar o’rtasida o’zaro fikr almashish vositasi, iqtisodiy tafakkur yuritish quroli¹.

(A1, A2, A3, A5, A7, A8, A9, A10, A11, A13, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q27, Q28, Q30, Q32, Q33, Q35)

2-mavzu: Adabiy norma va nutq madaniyati (2 soat)

Til normasining ilmiy nuqtai nazardan o’rganish o’zbek tili nutq madaniyati muammolarini nazariy jihatdan asoslashning muhim shartlaridan biri ekanligi.

Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til normalarining umumiy holatini o’rganish.

O’zbek adabiy tili normalari (me’yorlari) ya’ni, leksik – semantik, talaffuz (orfoepik), yozuv (grafika), fonetik, aktsentologik, grammatik, so’z yasaliş, imloviy, uslubiy, punktuatsion normalar haqida ma’lumot berish.

Adabiy me’yorning amaliy ahamiyati.

(A1, A2, A6, A7, A8, A13, A16, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q27, Q28, Q30, Q32)

3-mavzu: Nutq madaniyati va notiqlik san’ati tarixi (2 soat).

Nutq madaniyati va uning so’z san’atidagi o’rni. Nutq madaniyati haqida turli tushuncha va xulosalar. Adabiy tallafuz va uning xalq shevalari bilan munosabati.

Notiqlik tarixi. Qadimda Yunonistonda so’z san’ati-notiqlik san’ati. Aristotel, Demosfen, Platon, Suqrotlarning notiqlik san’ati.

Rim notiqligi rivojlanishining siyosiy-iqtisodiy asoslari. Siseron va uning asarlarida notiqlik san’atining yaratilishi.

Sharqda va Markaziy Osiyoda notiqlik: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg’ariy, Yusuf Xos Hojib, Imom G’azolliy, Kaykovus, Jaloliddin Rumiy, Husayn Voiz Koshifiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Hamza, Fitrat, Abdulla Qodiriy, G’afur G’ulom, Abdulla Qahhor va boshqalarning nutq madaniyatiga oid qarashlari va fikrlari.

Davlat va harbiy arboblarning notiqligi: Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sharof Rashidov, Islom Karimov va boshqalarning notiqlik mahorati.

(A1, A13, A16, A18, A19, A20; Q2, Q4, Q7, Q12, Q16)

¹ **Izoh:** Mustaqil ta’lim mavzulari *kursiv* bilan ko’rsatildi.

4-mavzu: Til va nutq. Nutq odobi. (2soat).

Til va nutq bir-biri bilan bog'liq hodisa ekanligi.

Til moddiy material bo'lib, shu material asosida nutq tashkil topishi.

Til va nutqning dialektik munosabati.

Tilning o'z vazifasini nutq orqali amalga oshirishi. Nutq faoliyati.

Nutq odobi va nutqiy etiket.

(A1, A2, A4, A8, A13, A19, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q27, Q28, Q30, Q32)

5-mavzu: Nutqning kommunikativ sifatlari

Nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlari, nutqning to'g'riligi, nutqning aniqligi, nutqning tozaligi, nutqning mantiqiyliqi, nutqning ta'sirchanligi, nutqning maqsadga muvofiqligi.

Nutqda egalik qo'shimchalaridan foydalanish normalari.

(A1, A2, A6, A7, A8, A13, A16, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q27, Q28, Q30, Q32)

6-mavzu: Iqtisodchi-pedagog nutqi va uning tasviriy texnikasi (4 soat).

Sharq va Markaziy Osiyo notiqligiga xos usullar. Ularning ta'sir kuchi va ahamiyati.

Nutq texnikasi haqida ma'lumot. Ovoz va uning iqtisodiy nutq ta'sirchanligidagi roli, ovoz imkoniyatlari va manbalari. Ovoz ustida ishlash. Intonatsiya. Nafasning nutqdagi ahamiyati. Nafas ustida ishlash. Artikulyatsiya va diktsiya haqida ma'lumot.

Notiqlik san'atida qo'l harakati muhim vosita sifatida. Jest (imo-ishora) va formalistik talqin nazariyachilari. Mantiqiy va psixologik kayfiyat uzviyligi. Notiqlik san'atida qaddi-qomat holati. Mimika (yuz harakati) nutqning eng muhim vositasi sifatida. Mimikaning tabiiyligi.

Pauzaning nutqdagi o'rni va roli. Uning tovush, bo'g'in, so'z va mantiqiy urg'uga munosabati.

Nutq a'zolari va ularning vazifalari.

(A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, A11, A12, A13, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q27, Q28, Q30, Q32, Q33, Q34)

7-mavzu: Iqtisodchi-pedagog nutqi va uslubshunoslik (2 soat).

Nutq va uslub. Til va nutq uslublari. Leksikologiya va uslubshunoslik. Uslubning o'ziga xos xususiyatlari.

Adabiy til va funksional uslublar. Funksional uslublarning turlari: so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub.

Badiiy uslub va o'qituvchi nutqi.

(A1, A2, A5, A6, A7, A8, A11, A13, A20; Q21, Q24, Q25, Q27, Q28, Q30, Q34)

8-mavzu: Iqtisodchi-pedagog nutqi va atamashunoslik (2 soat).

Iqtisodiyot tili va uning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiyot tilining asosiy shartlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tilining ahamiyati. Iqtisodiyot tili va uning tarkibi.

Iqtisodiyot leksikasi va uning turlari: umumiste'moldagi so'z, ibora, atamalar. Iqtisodiy atamashunoslikning shakllanish va boyish manbalari. Iqtisodiy so'z va atamalarni qabul qilish tamoyillari.

(A1, A2, A4, A5, A6, A7, A8, A9, A13, A17, A18, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q26, Q27, Q28, Q30, Q32)

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari

1-mavzu: Nutq madaniyati va adabiy norma. (2 soat)

O'zbek adabiy tili normalari: leksik – semantik, talaffuz, yozuv, fonetik, aktsentologik, grammatik, so'z yasash, imlo, uslubiy, punktuatsion normalar haqida bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan masqlar ustida ishlash.

Nutq - madaniyat ramzi.

Adabiy tallafuz va xalq shevalari* .

Aristotelning notiqlik san'atiga oid "Ritorika" asari.

Siseronning "Notiqlik haqida" asari va uning notiqlik san'atiga bag'ishlangan nutqlari.

Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhorning asarlarida so'z va nutq madaniyatining aks etishi.*

(A1, A2, A5, A6, A8, A11, A12, A13, A19, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q27, Q28, Q30, Q32, Q33, Q35)

2-mavzu: Sharq va G'arb notiqligi (2 soat)

Voizlik san'ati, taniqli voizlar: Koshifiy, Mehnagiy, Riyoziy faoliyati haqida ma'lumot berish. G'arbning mashhur notiqlari (Aristotel, Siseron, Kvintilian va bosh.) faoliyati haqida tasavvur hosil qilish.

Sharq va g'arb notiqligining o'ziga xosliklariga e'tibor qaratish.

(A1, A2, A5, A6, A8, A11, A12, A13, A19, A20; Q21 Q22, Q25, Q27, Q28, Q30, Q32, Q33, Q35)

3-mavzu: Kaykovus suxango'ylik xususida (2 soat).

"Qobusnoma" da notiqqa qo'yiladigan talablar haqida tasavvur hosil qilish, munozara uyushtirish, munozara odobiga o'rgatish.

(A1, A2, A6, A7, A8, A9, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q27, Q30, Q32, Q33, Q35)

* **Izoh:** Majburiy ta'lim * bilan ko'rsatildi.

4-mavzu: Alisher Navoiy til, nutq va notiqlik san'ati haqida (4 soat).

Navoiyning notiqlik va nutq madaniyatiga oid asarlari, qarashlari yuzasidan fikr almashish. Munozara uyushtirish. Talabalarning adabiy nutq ko'nikmalarini baholash.

(A1, A2, A3, A5, A7, A8, A9, A10, A11, A13, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q27, Q28, Q30, Q32, Q33, Q35)

5-mavzu: Nutqning kommunikativ sifatlari (2 soat).

Nutqning kommunikativ sifatlariga oid mashqlar ishlash, nutq uslublariga oid matnlar tuzish.

(A1, A2, A3, A5, A7, A8, A9, A10, A11, A13, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q27, Q28, Q30, Q32, Q33, Q35)

6-mavzu: Iqtisodchi-pedagog nutqi va nutq tasviriy texnikasi (2 soat).

Nutq organlari.

Nutq texnikasini egallash.

*O'qituvchining nutq texnikasi**.

(A1, A2, A3, A5, A7, A8, A9, A10, A11, A13, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q27, Q28, Q30, Q32, Q35)

7-mavzu: Nutq va uslubshunoslik (2 soat)

Uslub. Nutq uslubi.

Leksik stilistika bo'yicha mashqlar.

*Funksional uslublar bo'yicha matnlarni tahlil qilish**.

Nutq. Og'zaki va yozma nutq.

Uslub. Funksional uslublar.

So'zlashuv uslubi. Rasmiy uslub. Ilmiy uslub. Publisistik uslub. Badiiy uslub. O'zbek tilining nutq uslublariga doir matnlar ustida ishlash.

*Nutq uslublari, ularning o'ziga xosligi**.

(A1, A2, A3, A5, A7, A8, A9, A10, A11, A13, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q27, Q28, Q30, Q32, Q33, Q35)

8-mavzu: Iqtisodchi-pedagog nutqi va atamashunoslik (2 soat)

Iqtisodiyotning rivojlanishida iqtisodiy so'zlarning o'rni.

Davlat tili haqidagi qonun va o'zbek atamashunosligi.

O'zbek iqtisodiy atamashunosligining boyishi, uni tartibga solish muammolari.

*Iqtisodiy hujjatlar tili va uni o'ziga xos xususiyatlari**.

(A1, A2, A3, A4, A5, A7, A8, A9, A10, A11, A13, A20; Q21 Q22, Q24, Q25, Q27, Q28, Q30, Q32, Q33, Q35)

Tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ko'rgazma-namoyish materiallari, o'quv filmlari va boshqa didaktik materiallar ro'yxati

Ko'rgazma-namoyish materiallari ro'yxati:

- Taniqli suxandonlarning nutqini video orqali tahlil qilish;
- I.Karimovning Oliy Majlis sessiyalarida so'zlagan nutqlarini o'rganish va tahlil qilish;
- taniqli iqtisodchi-pedagoglarning metodik mahoratini video materiallar orqali tahlil qilish;
- taniqli va mohir jurnalistlar bilan uchrashuvlar uyushtirish;
- gazeta va jurnallarda e'lon qilingan materiallarni tahlil qilish.

Didaktik materiallar ro'yxati:

- mavzular bo'yicha tuzilgan testlar;
- yozma ish variantlari va boshqa tarqatma materiallar;
- mavzular bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.

Multimediya ilovalari:

- Lingafon kabinetidan, audio va video vositalardan foydalanib nutqning aniqligiga, mantiqiyligiga, ta'sirchanligiga va sofligiga e'tiborni qaratish;
- iqtisodiyotga oid o'quv filmlar;
- fan bo'yicha ma'ruza matnlari to'plamini SD-ROM ilovadan foydalanib, kompakt diskka yozish va undan foydalanish.

4. REYTING BAHOLASH TIZIMI

Ushbu fan bo'yicha o'quv rejasida jami 60 soat rejalashtirilgan bo'lib, shundan 18 soat ma'ruza, 18 soat amaliy mashg'ulot va 24 soat mustaqil ta'lim.

Magistrantlarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi: maksimal ball - 100 ball, bundan joriy baholash (J.B.) ga 35 ball, oraliq baholash (O.B.) ga 35 ball, yakuniy baholash (Ya.B.) ga 30 ball ajratilgan.

Joriy, oraliq va yakuniy baholashlar talabalar bilimini og'zaki, yozma shakllarda nazorat qilish hamda referatlarni tekshirish usulida o'tkaziladi.

Saralash ball – 55 ball.

Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

qoniqarli	- 55 dan 70 gacha	55-70%
yaxshi	- 71 dan 85 gacha	71- 85%
a'lo	- 86 dan 100 gacha	86-100%

4.1. Reyting nazorati jadvali Bakalavriatning barcha ta'lim yo'nalishlari uchun

Рейтинг нazorati турлари	Семестр haftalari																				Аттестация	Ballar	Saralash ballari
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	20					
ЖН	0-5		0-6			0-6			0-6			0-6			0-6				0-35	39			
ОН	0-17									0-18											0-35		
Σ (ЖН+ОН)	0-70																					0-70	
ЯН																					0-30	0-30	0
Жами	0-70																				0-30	0-100	56

4.2. JN bo'yicha baholash mezonlari

JN amaliy mashg'ulotlar o'zlashtirilishi bo'yicha yuqoridagi jadvalda keltirilgan semestr haftalari kesimida har bir mashg'ulotda talabaning o'zlashtirishiga mos ravishda mezon asosida jami 0-35 ballgacha jamlanishi belgilangan.

4.3. ON bo'yicha baholash mezonlari

ON ma'ruza mashg'ulotlari materiallari asosida bir semestr davomi 2 marta o'tkaziladi. ON bo'yicha talaba jami 0-35 ballgacha jamlashi mumkin.

Fanning o'qitilgan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish nazorati turli shakllarda o'tkazilishi mumkin. Mazkur fandan ON test sinovi shaklida o'tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-35 ball kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi.

4.4. Σ (JN+ON) bo'yicha baholash mezonlari

Σ (JN+ON) 0-70 gacha bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

Baholash mezonlari	Reyting ballari		Σ (JN+ON)
	JN	ON	
“Nutq madaniyati” fani mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimining o'rni, insonning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo'lgan munosabati bilan bog'liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, falsafiy tushunchalar haqida ijodiy fikrlaydi, falsafiy qonun va kategoriyalarning mohiyatini tushuntirib beradi, mustaqil mushohada yurita oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	30-35	30-35	60-70
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda “Nutq madaniyati” fani haqida tasavvurga ega bo'ladi, mustaqil mushohada	25-29	25-29	50-59

yurita oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.			
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda fan bilan bog'liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	20(19)24	20-24	39-49
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda fan bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-19	0-19	0-38

4.5. YaN ni baholash mezonlari

YaN “Yozma ish” yoki “Test sinovi” shaklida (0-30) ballgacha belgilangan mezon asosida yoki majmual shaklda Yozma ish + test sinovi shaklida (6/24) ballik tizim asosida o'tkaziladi. YaN og'zaki shaklda o'tkazilganda 0-30 bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq belgilangan:

YaN bo'yicha baholash mezonlari	YaN
“Nutq madaniyati” fani mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda nutqi madaniyati va notiqlik san'ati tarixini biladi, nutqning kommunikativ tasnifi bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon etadi, til va nutq haqida bilimlarga ega bo'ladi, xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	60-70
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda til va nutq haqida yaxlit tasavvurga ega bo'ladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	50-59
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulot mavzulari bilan bog'liq masalalar bo'yicha mavzu savollari mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	39-49
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda mavzu savollari bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-38

5. DASTURNING INFORMATSION-KOMMUNIKATSION VA USLUBIY TA'MINOTI

Tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ta'limning zamonaviy, xususan, interfaol metodlari pedagogik va informatsion-kommunikatsion (mediata'lim, amaliy dastur, paketlari, taqdimot, elektron-didaktik) texnologiyalari majmual tarzda qo'llanilishi nazarda tutilgan. Jumladan, kompyuter dasturlari yordamida audit o'tkazish uchun talab etiladigan manbalar nazariy-amaliy jihatdan shakllantiriladi va olingan ma'lumotlar o'rganiladi.

6. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Abdurahmonov X. Mahmudov N. So'z estetikasi. T.: Fan 1981, 38 b.
2. Begmatov E. va boshqa. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. T.: Fan. 1988
3. Begmatov E. va boshqa. Adabiy norma va nutq madaniyati. T.: Fan. 1983.
4. Inomxo'jaev S. Notiqlik san'ati asoslari. T.: O'qituvchi. 1982, 212 b.

5. Nazarov K. Usmonov S. Tohirov O'. Yuristning nutq madaniyati. T.: 2003.
6. Ortiqov A., Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. T.: 2002.
7. O'rinboev B. Soliyev A. Notiqlik mahorati. T.: O'qituvchi. 1984, 124 b.
8. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari.-T.: O'qituvchi. 1993, 120 b.
9. Qo'ng'urov R. Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T.: O'qituvchi 1992, 256 b.
10. Mamatov E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. T.: 1991, 273 b.
11. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T.: O'qituvchi, 2003.
12. Jalilov X. Notiqlik san'ati. T.: Fan, 2000, 76 b.
13. Husanov N. Nutq madaniyati fanidan ma'ruza matnlari. T.: TMI, 2001, 106 b
14. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. T.: «Adolat», 2005. 90 b.
15. Mo'ydinov Q. Vahobova K. Nutq madaniyati ma'ruzalar matni. TDPU, 2001, 86 b.
16. Toshpo'latova K. Nutq madaniyati ma'ruzalar matni. TDPU, 2001, 80 b.
17. Mirtojiyev M. Mahmudov N. Til va madaniyati T.: O'zbekiston, 1992.
18. Muhiddinov A. O'quv jarayonida nutq faoliyati. T.: O'qituvchi, 1995, 92
19. Tojiyev Yo. Hasanova N. Tojimatova H, Yo'ldoshyeva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari (ommabop qo'llanma). -T.: 1994, 130 b.
20. R. Rasulov. Q. Mo'ydinov. Nutq madaniyati. -T.: TDPU, 2004, 110 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

21. Rustamov A. So'z xususida so'z. T.: «Yosh gvardiya», 1987, 160 b.
22. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. T.: Ma'naviyat. 1999, 78 b.
23. Saidov A., Ko'chimov Sh. Qonun va til.-T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2002, 174 b.
24. Qo'ng'urov R., Abusaidov A. Gazeta tili leksik stilistikasi. Samarqand. Sam.DU, 2001, 124 b.
25. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. T.: «Sard», 2001, 230 b.
26. Jumaniyozov R. Salimova S., G'oyaviy tarbiyada notiqlik san'ati. T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2002, 32 b.
27. O'zbek tilining imlo lug'ati. T.: O'qituvchi, 2003, 230 b.
28. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. T.: Fan, 2004, 52 b.
29. Mahmudov N. Til. T.: O'zbekiston, 1991, 86 b.
30. Xonnazarov K. Til va Dil. T.: O'zbekiston 1991, 64 b.
31. Safayev N., G'afforov B. Muomala sirlari T.: Navro'z. 1992, 72 b.
32. Siddiq Mo'min. So'zlashish san'ati. Farg'ona. 1997, 92 b.
33. Hakimova O. Mantiq va nutq madaniyati. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002, 120 b.
34. Meliboyev A. Nutq va mahorat. – T.: «O'zbekiston adabiyoti va san'ati». 2005 y, 21-oktyabr.
35. Meliboyev A. Xushtakni kim chaladi. T.: «O'zbekiston adabiyoti va san'ati». 2005-y, 28-oktabr.
36. Internet saytlari
 - www.tfi.uz
 - www.thinsan.com
 - www.dersimiz.com
 - www.altinmiras.com
 - www.ziyonet.uz